

Quramboyev Alisher Maxsudovich

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

E-mail:quramboyevalisher@mail.ru

ISLOM DINIDA KAMBAG‘ALLIKKA MUNOSABAT

Annotatsiya: Islom dini insoniyatga yuborilgan muqaddas ta’limot sifatida, jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, kambag‘al va ehtiyojmandlarga katta e’tibor qaratadi. Islomda kambag‘allik, shunchaki moddiy yetishmovchilik emas, balki jamiyatda adolat, mehr-oqibat va tenglik kabi qadriyatlarning yetishmovchiligi deb qaraladi. Bu din insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy tenglikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirish uchun maxsus choralarni taklif qiladi. Islomning asosiy maqsadlaridan biri insonlarni bu dunyoda va oxiratda baxt-saodatga erishtirishdir. Shu ma’noda, kambag‘allikning oldini olish va unga qarshi kurashish, islomning ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan tamoyillaridan biridir. Qur’on va hadislarda kambag‘allarga yordam berish, ularning holatini yaxshilash masalalari keng yoritilgan bo‘lib, bu islom jamiyatining uzviy qismi hisoblanadi. Kambag‘allikka qarshi kurashda zakot, sadaqa va boshqa ijtimoiy mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada muqaddas islom dinining kambag‘allikka bo‘lgan munosabati, uning ijtimoiy va ruhiy jihatlarini keng ko‘lamda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: islom, kambag‘allik, adolat, ijtimoiy himoya, tenglik, insonparvarlik.

Kuramboyev Alisher Makhsudovich

Doctoral student of the research institute” family and gender”

E-mail:quramboyevalisher@mail.ru

ATTITUDE TO POVERTY IN ISLAM.

Annotation: Islam, as a sacred teaching sent to humanity, pays great attention to all layers of society, especially the poor and needy. In Islam, poverty is seen not only as a lack of material possessions, but also as a lack of values such as justice, kindness and equality in society. This religion offers special measures to ensure

social equality among people and reduce poverty. One of the main goals of Islam is to make people happy in this world and in the hereafter. In this sense, preventing and fighting against poverty is one of the principles of Islam aimed at ensuring social justice. The Qur'an and hadiths widely cover the issues of helping the poor and improving their condition, which is an integral part of the Islamic society. Zakat, charity and other social mechanisms play an important role in the fight against poverty. In this article, the attitude of the holy religion of Islam to poverty, its social and spiritual aspects is analyzed in a wide scale.

Keywords: Islam, poverty, justice, social protection, equality, humanity.

Курамбаев Алишер Махсудович

Докторант НИИ "семья и пол"

E-mail:quramboyevalisher@mail.ru

ОТНОШЕНИЕ К БЕДНОСТИ В ИСЛАМЕ.

Аннотация: Ислам, как священное учение, посланное человечеству, уделяет большое внимание всем слоям общества, особенно бедным и нуждающимся. В исламе бедность рассматривается не только как отсутствие материальных благ, но и как отсутствие таких ценностей, как справедливость, доброта и равенство в обществе. Эта религия предлагает особые меры по обеспечению социального равенства между людьми и сокращению бедности. Одна из главных целей Ислама – сделать людей счастливыми в этом мире и в будущей жизни. В этом смысле предотвращение бедности и борьба с ней является одним из принципов ислама, направленных на обеспечение социальной справедливости. В Коране и хадисах широко освещены вопросы помощи бедным и улучшения их положения, что является неотъемлемой частью исламского общества. Закат, благотворительность и другие социальные механизмы играют важную роль в борьбе с бедностью. В данной статье в широком масштабе анализируется отношение священной религии Ислам к бедности, ее социальным и духовным аспектам.

Ключевые слова: Ислам, бедность, справедливость, социальная защита, равенство, человечность.

Kirish.

Kambag'allik tushunchasi qadimdan insoniyat tarixida muhim va murakkab masalalardan biri bo'lib kelgan. Har bir jamiyat va madaniyat kambag'allikka o'z nuqtai nazaridan qaragan, shuningdek, diniy, ijtimoiy va falsafiy doiralarda turli xil talqinlarga sabab bo'lgan. Kambag'allikni hayotning ajralmas bir qismi sifatida qabul qilganlar ham, unga qarshi kurashish zarurligini ta'kidlaganlar ham bo'lgan. Ushbu tushunchaga bo'lgan munosabat o'zgarib borgan va u jamiyatlarning axloqiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlari bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan, kambag'allikni muqaddas deb biluvchilar toifasi: **dunyodan parhez qiluvchi, qalandar, tasavvuf va zuhdi taqvoga chaqiruvchi ayrim toifalar** kambag'allikni davolash zarur bo'lgan kasallik deb emas, balki Allohning bandalarga bergan buyuk ne'mati deb biladilar. Ularning fikrlariga ko'ra, aynan kambag'allik kishini oxiratga bog'laydi va dunyoga muhabbat qo'yishdan qaytaradi. Binobarin, boylikni sarkashlikka undovchi, odamni chalg'ituvchi behuda illat deb hisoblaydilar. Yana bir toifa **jabariylar** bo'lib, kambag'allikka nisbatan yuqoridagilarning fikrlariga qo'shilmaydilar. Ular kambag'allikni yomon illat va ofat deb hisoblaydilar. Biroq bu narsa taqdirning taqozosi bo'lib, muammoni hech qanday chora tadbir daf qila olmaydi deb hisoblaydilar. Shuningdek, kambag'allik ham, boylik ham Alloh taoloning xohishi va qadariga bog'liq bo'lib, agar Alloh xohlasa hammani birdek badavlat qilib qo'yar edi. Lekin Haq subhanahu va taolo imtihon qilish maqsadida ayrimlarni faqir qildi, boshqalarni boy. Allohning xohishiga hech kim va hech narsa qarshi chiqa olmaydi ham, o'zgartira olmaydi ham... va hokazo mana shunday haq gaplar bilan nohaq qarashlarni ifoda etadilar.

Kambag'allikka nisbatan qarashlarda **uchinchi toifa** ham borki, ular yo'qsillikni qoralaydilar va muammo deb biladilar va buni hal qilish kerak deb biladilar. Ammo muammoni hal qilishdagi muolajalari faqirlarga sabrli bo'lishni tavsiya qilish va boylarni moliyaviy ko'mak berishga undash bilan cheklanadi.

Bunday toifadagilar boylarga: "Agar xayr-u saxovat qilsangiz katta savobga qolasiz. Aksincha, ziqnalik qiladigan bo'lsangiz abadiy azobga duchor bo'lasiz va hasratda qolasiz",- deya nasihat qiladilar.

Adabiyotlar tahlili.

Islom ta'limotiga ko'ra boylik Allohning katta va shukronasi talab etiladigan ne'matlaridan biridir. Kambag'allik esa nafaqat muammo, balki unga chora-tadbirlarini ko'rish kerak bo'lgan xatar sifatida qaraydi. Musulmon kishi Allohdan unga duchor qilmasligini so'rashi va qo'lidan kelganicha bunga o'zi ham harakat qilishi kerak.

Alloh taolo boylikning nechog'lik katta ne'mat ekanligini aytib bunday marhamat qilgan: "Va U seni kambag'al holda topib, boy qilmadimi?", (Zuho surasi, 8-oyat). Islom g'oyasiga ko'ra, bu muammoning yechimi bor va uni amalga oshirishning imkoni mavjud. Bu yechim taqdirga yoki ilohiy irodaga qarshi chiqish emas, albatta. Islom kambag'allikni muqaddas bilib, boylikni gunohlar evaziga kelgan musibat deb hisoblaydiganlarning qarashlarini ma'qullamaydi.

Dinimiz kambag'allikni taqdiri ilohiy, uni o'zgartirishning iloji yo'q va buni xohlash ham gunoh, deb e'tiqod qiladigan jabariylarning tushunchalarini inkor etadi. Ehson qilishni faqatgina shaxsiy fazilat deb hisoblaydiganlarning qarashlariga unchalik ham qo'shilmaydi [1]. Muqaddas kitobimizda yetim-yesirlar, qarovsiz qolgan oilalarga ko'maklashish, moddiy qo'llash savobli amal ekanligi aytib o'tilgan: "Allohg'a ibodat qilingizlar va Unga hech narsani sherik qilmangizlar! Ota-onalarga esa yaxshilik qilingizlar! Shuningdek, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar, qarindosh, qo'shni-yu begona qo'shni, yoningizdagi hamrohingiz, yo'lovchi (musofir)ga va qo'l ostingizdagi (karam)larga ham (yaxshilik qiling)! Albatta, Alloh kibrli va maqtanchoq kishilarni sevmaydi.(Ular) o'zlari baxillik qilish bilan birga (boshqa) odamlarni (ham) baxillikkka buyuradigan va Allohning O'z fazli bilan bergan (ne'mat)larini yashiradigan (kimsa)lardir. Kofirlarga (esa) xor qiluvchi azobni tayyorlab qo'yganmiz" (Niso, 36, 37).

Jamiyat iqtisodiy jihatdan bir tekis emas. Unda turli sabablarga ko'ra noqulay ahvolga tushib qolgan insonlar ham bo'lishi tabiiydir. Har qaysi jamiyat mazkur holga tushib qolgan o'sha a'zolariga yaxshilik qilishni, ularni noqulay iqtisodiy va ma'naviy holatdan chiqib olishlari uchun sa'y-harakat qilishlari lozimdir. Ijtimoiy himoyaga oid g'oyalar hadislarida ham ehtiyojmandlarga yaxshilik, ehson qilish haqidagi targ'iblar o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Alloh taolo sahiydir, sahiylikni sevadi. Yaxshilik qiluvchidir, yaxshilikni yaxshi ko'radi" (Imom Termiziy rivoyati). "Qarovsiz qolgan musulmon oilalariga kechayu kunduz moddiy yordam ko'rsatib yuruvchi odamning gunohlarini Alloh taolo kechirib yuboradi" (Abu Dovud rivoyati) "Ikki zaif toifa, ya'ni yetim va ayol haqqini yemoqlikni sizlarga harom qilaman" (Hokim va Bayhaqiy rivoyatlari) [2]. "Kishi sadaqa-ehson va muruvvat eshigini ochsa, Tangri uning mol-u dunyosiga baraka ato etadi. Agar u tilanchilik eshigini ochgudek bo'lsa, Tangri uning faqirligini ziyoda qiladi" [3]. Shu bilan birga falsafada fatalizm yo'nalishi ham mavjud bo'lib, u har bir hodisa va insonning barcha xatti-harakatlari taqdiri - azalga, qismatga bog'liq, deb hisoblaydi. Fatalizm inson xech narsani o'zgartira olmaydi, barcha narsa, hodisa, jarayonlar mazmuni, yo'nalishi, oqibatlari oldindan belgilangan degan g'oyani ilgari suradi va bu bilan insonni hech qanday faoliyat ko'rsatmaslikka, passivlikka, qismatga bo'ysunishga da'vat etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolani yoritib berishda inson taraqqiyotida kambag'allik va islom dinida kambag'allikka munosabat, shu jumladan, mavzu haqidagi ta'limotlar va uning mohiyatini yoritib berishda kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, sintez, kontent analiz, dialektik, qiyosiy tahlil kabi usul va yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Bizningcha, ushbu g'oya ham inson ma'naviyati uchun tahdid sanalib, inson erkinligi va ijodkorligini bo'g'adi. Inson hayotda hamma narsani taqdirga to'nkamay, yaxshi-yamon ishlar qilishda Alloh iroda va faoliyat erkinligini berib qo'yganligi, har bir inson bu dunyoda nima eksa o'shani o'rishini unutmasligi

lozim. Harakat qilib, o'z mehnati bilan kun kechirish esa xalqimiz qadrlaydigan oliy qadriyatlardandir.

Harakat – butun mavjudotning yashash usuli. Mavjud bo'lmoq, eng avvalo, harakatlanmoq va o'zgartirmoq demakdir[4]. Mehnat va harakat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, shu jarayonda o'zini ham o'zgartira boradi. Shuningdek, jamiyatda muayyan o'rin tutadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, o'zligini va jamiyatni, o'zining jamiyatdagi o'rnini anglaydi. Siz-u biz sabablar dunyosida yashar ekanmiz, keng rizq tashvishida harakat qilmog'imiz darkor. Soppa-sog' va imkonimiz bo'la turib, faqat duoga suyanib olishimiz to'g'ri emas.

Duo mehnat qilib sabablarga rioya qilgandagina natija kelishini osonlashtiradi. Rizqlar har joyga sochilgan bo'lgani uchun Alloh taolo bandalariga yer yuzi bo'ylab tarqalgan holda halol rizq talab qilishlarini amr etadi: “U (Alloh) sizlarga Yerni xokisor (bo'ysunuvchi) qilib qo'ygan Zotdir. Bas, sizlar u (Yer)ning har tomonida (sayohat, tijorat yoki dehqonchilik qilib) yuraveringiz va U (Alloh)ning rizq-ro'zidan yenglar! (Qiyomat kuni) tirilib chiqish Uning huzurigadir” (Mulk surasi, 15-oyat.).

Xolid ibn Ma'don Miqdom roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Hech kim o'z qo'l mehnati bilan topib yeganidan ko'ra yaxshiroq taom yegan emas. Allohning nabiyasi Dovud alayhissalom ham qo'l mehnati bilan kun ko'rar edilar”, dedilar.

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Albatta, Alloh kasb-kor qiluvchi mo'min bandani yaxshi ko'radi”, - dedilar. Shuni unutmangki, hech qachon kim bo'lishingizdan qat'i nazar, rizqingiz o'z-o'zidan kelib qolmaydi. Hatto payg'ambarlar ham biror kasb-hunar bilan shug'ullanib, halol rizq uchun jon kuydirganlar.

Naqshbandiya tariqati shayxlari kasb-hunari bo'lmagan kishilarni muridlikka qabul qilmaganlar. Shogirdlikka tushishda birinchi so'raladigan savol- bu uning ishi va hunari edi. “Bizning yo'limizda hirqa (kamzul) emas, hirfa (hunar) muhimroq”, deya xojagon va naqshbandiya shayxlari boshqalarga yuk

bo'lmashliklari uchun ishsiz odamlarni muridlikka qabul qilmaganlar [5]. Ular banda qo'l mehnati bilan kun ko'rishini yoqlaganlar: Shu o'rinda Bahouddin Naqshbandiyning "Dilba yor-u, dastba kor" hikmati esimizga tushadi.

Umuman olganda, inson ongining shakllanishi va rivojlanishida mehnatning roli katta. Inson mehnat tufayligina tabiatdan ajralib chiqdi va u orqali ijtimoiy hayotini qayta qurishga qodir. Mehnat insonning bahosiz boyligi, hayotining, yashashining mazmunidir. Inson o'z istaklariga faqat harakat va mehnat tufayligina erishishi mumkin. Islom dini qo'shnilarning ham bir-birlariga yaxshilik qilishga chorlaydi. Ularning haq-huquqlari baland ekanligini qayd etadi. Xabarda kelibdirki, qiyomat kuni kambag'al qo'shnilar boy qo'shnilarni tutadilar va aytadilar: "Yo bor Xudoyo, bulardan so'ragilki, nima uchun bizlarga yaxshilik qilmadilar va nima uchun yuzimizga eshikni yopdilar?!"

Rasululloh alayhissalom aytdilar: "Qo'shnilar haqi ushbudirki, agar sendan yordam so'rashsa, yordam bergil. Agar qarz so'rashsa, qarz bergil. Agar kambag'al bo'lsalar, madad qilgil. Agar kasal bo'lishsa, chiqib ko'rgil. Agar vafot qilishsa, janoza orqasidan borgil. Agar shod bo'lsalar, muborakbod qilgil. Agar g'amgin bo'lsalar, ko'ngil so'rab, dalda bergil. Uying tomini ularning uyidan baland qilmagilki, shamolga mone bo'lmagay. Har narsa yesang, qo'shniga ham chiqargil. Agar chiqara olmasang, pinhon yegil. Ravo ko'rmagilki, farzandlaring qo'liga non tutib chiqib, qo'shnilar farzandiga ozor yetkazgay. Qo'shnilarga oshxonang tutuni bilan ozor bermagil. Tutuni ko'rinsa, u oshdan qo'shniga bergaysan. Qasam qilaman Alloh taoloning azimatigaki, mening hayotim uning qudrat qo'lidadir, qo'shnilar haq-huquqini hech bir kishi ado qilolmas, magar Xudo azza va jalla unga rahmat qilgan kishi (qilolgay)" [6].

Aslida islom diniga ko'ra har kim kambag'allikka o'zi kurashadi. Lekin u mehnatga layoqatsiz, beva, yosh bolalar, keksa, kasalmand bo'lsachi? Islom dini yaqin qarindoshlarni bir-biriga javobgar qilib qo'ygan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari bor: "Kimki, Alloh va oxirat kuniga imon keltirsa silai rahm qilsin". "Qarindoshlik rishtalari Arshning tirkaklariga osilgan

bo'lib, "Men bilan aloqa o'rnatganlarni Alloh ham O'ziga yaqin oladi. Mendan aloqalarni uzgan kimsadan Alloh ham (aloqani) uzadi" deb aytadi".

Nabiy sollallohu alayhi vasallam ota-onaga va qarindoshlarga yaxshilik qilishga buyurib, jumladan shunday deganlar: "Onanga, otanga, opa-singillaringa, aka-ukalaringa, yaqin qarindoshlaringa yaxshilik va silai rahm qilish zimmangdagi burchlardan biridir" [7].

Xulosa va takliflar.

Islom dini insoniyatning turli ijtimoiy qatlamlariga, ayniqsa, kambag'allarga chuqur e'tibor qaratgan holda, ularga yordam berish va ularning huquqlarini himoya qilishga intiladi. Kambag'allik islomda ijtimoiy adolatning yetishmovchiligi sifatida qabul qilinib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida muhim muammo deb qaraladi. Islom jamiyatida zakot va sadaqa tizimlari kambag'allikni yengishdagi eng samarali mexanizmlar bo'lib, ular kambag'allarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, vaqf kabi ijtimoiy tashkilotlar ham kambag'allikka qarshi kurashda o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Ahmadjon Boyqobilov. Islomda kambag'allik muolajasi: (risola) "Azmir nashr prent" nashriyoti, Toshkent. 2021. 120-bet.
2. Kamoljon Komilov, Davronbek Maqsudov. "Ijtimoiy himoyaga oid Qur'oni Karim oyatlari va hadislardan namunalar." "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. 30-40- betlar.
3. Axloq-odobga oid hadis namunalari. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar H.Hikmatullayev va A.Mansurov. T.: "Fan". 1990. 33-bet.
4. Falsafa qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". "Sharq" nashriyoti. Toshkent. 2004. B.489.
5. Abu homid G'azzoliy Kimiyoi saodat. Imom Buxoriy xalqaro markazi. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Samarqand.2018 B.124.

6. Ahmadjon Boyqobilov. Islomda kambag'allik muolajasi: (risola) "Azmir nashr prent" nashriyoti, Toshkent. 2021. 56-57-betlar.

7. Ahmadjon Boyqobilov. Islomda kambag'allik muolajasi: (risola) "Azmir nashr prent" nashriyoti, Toshkent. 2021. 56-57-betlar.